9. **Palmer F. R.** Semantics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

10. **Saussure F. de.** Course in General Linguistics. — New York: McGraw-Hill, 1966.

11. **Smirnitsky A. I.** Lexicology of the English Language. — Moscow: Higher School, 1998.

12. **Ullmann S.** Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. — Oxford: Basil Blackwell, 1962.

13. **Vinogradov V. V.** Russian Language. — Moscow: Nauka, 1977.

14. **Wray A.** Formulaic Language and the Lexicon. — Cambridge: Cambridge University Press, 2002.

15. **Zgusta L.** Manual of Lexicography. — The Hague: Mouton, 1971.

KREATIVLIK TUSHUNCHASIGA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Ergasheva Mo‘tabar Ilhamovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

***Annotatsiya**: Kreativlik tushunchasi, uning psixologik asoslari, asosiy belgilar va shaxs rivojlanishidagi roli haqida ma’lumot beradi. Matnda kreativlikning divergent fikrlash, tasavvur boyligi, moslashuvchan fikrlash va ichki motivatsiya bilan bog‘liqligi tushuntirilgan. Shuningdek, kreativlikning kundalik hayot, ilm-fan, ta’lim va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kreativlik, signifikatsion ko‘nikmalar, psixologiya, pedagogika, tematik appertseptiv matn metodi, verballi belgilar sistemasi, semiotic tizm, intelekt, leksik boylik, ijodkorlik va hk.*

Аннотация: *В статье раскрывается понятие креативности, её психологические основы, основные признаки и роль в развитии личности. В тексте объясняется связь креативности с дивергентным мышлением, богатством воображения, гибкостью мышления и внутренней мотивацией. Также освещается значение креативности в повседневной жизни, науке, образовании и общественном развитии.*

Ключевые слова: *креативность, сигнификационные навыки, психология, педагогика, тематический апперцептивный тест, вербальная система знаков, семиотическая система, интеллект, лексическое богатство, творчество и др.*

Abstract: *The article provides information about the concept of creativity, its psychological foundations, main characteristics, and its role in personality development. The text explains the connection between creativity and divergent thinking, richness of imagination, cognitive flexibility, and intrinsic motivation. It also highlights the importance of creativity in everyday life, science, education, and societal development.*

Keywords: *creativity, significational skills, psychology, pedagogy, thematic apperception test, verbal sign system, semiotic system, intellect, lexical richness, creativity, etc.*

Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e’tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilmayotgan bo‘lsa ham bu tushunchani ma’lum darajada pedagogik iste’molga kiritishga doir harakatlar ko‘zga tashlanmoqda. Pedagogikaga oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita murojaat etgan pedagog olim pedagogika fanlari doktori,

professor R.A.Mavlonova o‘zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida baholi qudrat fikrlar bildirgan. Uning «Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya», «Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi» nomli o‘quv qo‘llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to‘xtalib o‘tgan.

Kreativlik:

1. Nutq ob’ektivliligi jarayonida sub’ektiv sistematizatsiyalanadi.

2. Kreativlik badiiy va oddiy nutq bilan tavsiflanadi.

3. Monologik va yozma nutq muallifning sub’ektivliligini bildiradi, maktab inshosi – psixodiagnostik tahlilning ob’ekti hisoblanadi. Uning yordamida shaxsning shaxsiy sifatlarini aniqlash mumkin.

4. Nutqdagi kreativlik erkinlik asosida amalga oshirilib, uning erkinligi til va nutq qonuniyatlariga amal qilgan bo‘lsada cheksizdir.

5. Matnni tuzishda ongli va ongsiz jarayonlar amalga oshiriladi; ongli – ya’ni bunda matnning semantik o‘ziga xosligi, ikkinchi holatda esa – sintaksislik .

6. Matnda shaxs bir butun holatda namoyon bo‘ladi; matnning barcha elementlari va uning arxitektonikasi muallifning shaxsiy o‘ziga xosligida reprezentatsiyalanadi .

7. Sistemani tashil etuvchi shaxsning sifatlari shaxsiy ma’noga ega bo‘ladi.

8. Kreativlik til vositasida shaxsiy ma’no va mazmunni amalga oshirishni ifoda etish jarayonida ko‘rinadi.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlik tushunasiga nisbatan bir-biriga zid bo‘lgan quyidagi turli xil qarashlar majud. Bular:

1.Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.

2.Kreativlik – bu insonning o‘ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.

3.Kreativlik – bu intellekt ya’ni aqlning mahsulidir.

4.Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfyotlardir.

5.Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.

6.Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.

7.Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kategoriyadir. Shu bilan bir qatorda psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o‘rganuvchi alohida yo‘nalish – ijodkorlik psixologiyasi yo‘nalishi vujudga kelgan.

Psixologlar ta’kidlaganidek, kreativlikning markazida divergent fikrlash turadi. Divergent fikrlash -bu bir masala bo‘yicha bir necha xil yechim variantlarini taklif qilish qobiliyati bo‘lib, u ijodiy fikrlashning asosiy mexanizmidir. Bu jarayonda shaxs oddiy assotsiatsiyalardan tashqariga chiqadi, o‘z tasavvuriga tayanadi, turli fikrlar o‘rtasida yangi bog‘lanishlar yaratadi. Aynan tasavvur boyligi kreativlikning kuchli omillaridan biri sanaladi. Tasavvuri keng bo‘lgan shaxs obrazlarni erkin o‘zgartira oladi, ularni yangi mazmunda qayta yarata oladi va shu orqali original g‘oyalar shakllantiradi.Kreativlik faqat intellektual jarayon emas, balki emosional-irodaviy sifatlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Ijodiy shaxslar odatda o‘z fikrida qat’iy, tavakkal qilishga tayyor, o‘z imkoniyatlariga ishongan bo‘ladilar. Ular ko‘pincha tanqidga bardoshli bo‘lib, o‘z fikrlarining to‘g‘riligini amalda isbotlashga harakat qiladilar. Ichki motivatsiyaning yuqoriligi kreativlikni faollashtiruvchi eng kuchli omillardan biridir. Agar shaxs o‘z ishiga chin dildan qiziqsa, unda yangi g‘oya yaratish jarayoni yanada samarali kechadi.Bugungi kunda kreativlik jamiyat rivojlanishining eng muhim resursiga aylangan. Global raqobat, texnologik yutuqlar, tezkor o‘zgaruvchan bozor sharoitlari kreativ fikrlovchi insonlarni ko‘proq talab qilmoqda. Ta’lim tizimi ham bolalarda tasavvur, erkin fikrlash, muammoga ijodiy yondashish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Chunki kelajak kasblarining aksariyati aynan kreativ fikrlashni talab qiladi. Innovatsiyalar, startaplar, yangi texnologiyalar, ilmiy kashfiyotlar - bularning barchasi kreativ yondashuv natijasidir.Kreativlik kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Inson uy ishlarini tashkil etishda, vaqtni boshqarishda, insonlar bilan muloqotda, turli vaziyatlarni hal qilishda kreativ bo‘lsa, uning hayoti ancha qulay, samarali va mazmunli bo‘ladi. Shuning uchun kreativlik -har bir insonda bo‘lishi mumkin bo‘lgan va muntazam rivojlantirilishi zarur bo‘lgan universal qobiliyatdir. Inson yangi tajribalarni sinash, yangicha fikrlash, savollar

berish, tajriba qilish orqali o‘z kreativ salohiyatini doimiy rivojlantirib borishi mumkin.

Mazkur maqolada kreativlik tushunchasiga psixologik nuqtayi nazardan yondashilib, uning mohiyati, tarkibiy jihatlari va shaxs rivojidagi o‘rni tahlil qilindi. Turli psixologik maktablar vakillarining qarashlari asosida kreativlik nafaqat yangi g‘oyalar yaratish qobiliyati, balki shaxsning muammolarga noodatiy yechim topish, moslashuvchan fikrlash va o‘zini namoyon etish jarayoni ekanligi aniqlandi. Shuningdek, kreativlikning kognitiv, emotsional va motivatsion omillar bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativlikni rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit yaratish, mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash va shaxsiy faollikni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonida hamda shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojida kreativ salohiyatni oshirishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Axmedov N.** Psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
2. **Qodirov S.** Insonning ijodiy rivojlanishi. – Toshkent: Sharq, 2010.
3. **Rasulov A.** Psixologiyada kreativlik va ijodiy fikrlash. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2012.
4. **Xolmatov T.** Shaxs va uning kreativ salohiyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
5. **Mirzaev R.** Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

ILMIY-TEXNIK TARAQQIYOT VA MEHNAT BOZORI O‘ZGARISHLARINING OILAVIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI